ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Pedagogika" fakulteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi Stajyor o'qituvchisi

+ 998 77 257-72-68

mohlaroyahmadaliyeva72@gmail.com

Usmonova Gavhar Nurmahmat qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 1-25guruh talabasi

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH

"Bizning asosiy maqsadimiz — har tomonlama rivojlangan, mustaqil

fikrlaydigan, ma'naviy boy va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir."

Karimov.I.A

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta'lim muhitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishda pedagoglar va maktab jamoasi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy va nazariy ishlar hamda ta'lim jarayoni sifatini yaxshilashga doir muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Inklyuziv ta'lim, huquq va qobiliyat, ijtimoiy adolat, tenglikka erishish, nogiron, didaktik o'yin, qaramlik, rivojlantiruvchi, inklyuziv.

Annotation

The article highlights the practical and theoretical work that should be carried out by teachers and the school community in teaching children with special educational needs in an inclusive education environment, as well as important aspects related to improving the quality of the educational process.

Keywords

Inclusive education, rights and abilities, social justice, achieving equality, disabled, didactic game, dependence, developmental, inclusive.

Аннотация

В статье освещаются практические и теоретические работы, которые должны осуществляться педагогами и школьным коллективом при обучении детей с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования, а также важные аспекты, связанные с повышением качества образовательного процесса.

Ключевые слова

Инклюзивное образование, права и способности, социальная справедливость, достижение равенства, инвалид, дидактическая игра, зависимость, развивающий, инклюзивный.

KIRISH.

YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta’lim extiyoji bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlashga qaratilgan me’yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlariga e’tibor qaratilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilab olindi.Maktabgacha ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta’lim xizmatlari bilan ta’minlash borasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv guruhlarda darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risi”da, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog‘lom, ma’nan etuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga etkazishdan iborat. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular o‘z asarlari bilan nogiron bolalar ta’lim tarbiyasi mazmunining boy metodologik asoslarin yaratganliklarining guvoximiz. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar. Demak, maxsus ehtiyojli bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida ta’lim tarbiya berish xozirgi zamonga o‘xshab o‘sha XI-XII asrlardayoq buyuk Sharq mutafakkirlarining ham diqqat markazidan chetda qolmagan. Buning natijasida esa 1990 yilda Tailandda Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiyada “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Dekloratsiyasi qabul qilindi.

Maxsus pedagogik soxasidagi yetuk olima L.R.Mo‘minova tomonidan maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning nutqidagi nuqsonni bartaraf etish bo‘yicha korreksion–pedagogik ishlarning nazariy asoslari ishlab chiqilqan, shuningdek, bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish metodikasi yaratilib amalda joriy etilgan.

L.SH.Nurmuhammedovaning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko‘rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan. Sh.M.Amirsaidovaning tadqiqotlarida sharq mutafakkirlarining maxsus pedagogika faniga oid ilmiy fikrlari o‘rganilib, Abu Ali Ibn Sinoning maxsus pedagogika fani ravnaqi uchun xizmat qiladigan tibbiy-ilmiy, pedagogik va psixologik g‘oyalari tahlil qilinib, o‘quv jarayoniga tadbiq etish usullari ishlab chiqilgan. Buyuk Britaniyaning “Bolalarni qutqaring” (“Save the children”-2002 yil) jamg‘armasi tomonidan nashr etilgan o‘quv qo‘llanmada inklyuziv va integratsion tushunchalari bir xil ma’noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan, ushbu tushunchalar orasida farq mavjud bo‘lib, bu farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

-integratsion ta’lim: maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim maktabiga qatnashi;

-inklyuziv ta’lim: maxsus ehtiyojli bolalarni sifatli ta’lim tarbiya olishi. Bu ikkala tushuncha o‘rtasidagi tafovut yanada tushunarliroq bayon etilgan bo‘lib, quyidagicha ta’kidlanadi: Integratsiyalashgan ta’limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Nogiron bolaning individual yoki tibbiy holatda maktabga yoki jamiyatga moslashishi kerak... O‘qishda muammo bo‘lsa, bola standart talablarni bajarishi kerak. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida integratsion va inklyuzivlik tushunchalarining o‘rtasida umumiylik ham mavjudligi o‘ganildi, bu umumiylik zamirida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitiga kiritish yotadi. Xorijiy davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimining joriy qilinishini o‘rganar ekanmiz, bu ta’lim tizimini joriy etish uchun uzoq vaqtni talab etishini va juda ko‘p miqdordagi moddiy mablag‘ zarurligi aniqlandi. Shuning uchun ham jahon miqiyosida inklyuziv ta’lim tizimining oldida quyidagicha juda ko‘plab muammolar va to‘siqlar mavjud: - ota-onalar uchun bu borada ma’lumotlarning yo‘qligi; - ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi; - nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat; - maxsus ehtiyojli bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi; - moddiy mablag‘ muammolari; - ta’lim muassasalarini jismoniy moslashtirish; - kadrlar masalasidagi muammolar.Bu kabi muammolar bor ekan,demak bo’lajak pedagoglar va izlanuvchilar bu kabi mavzularda izlanishni davom ettirib borishlari kerak deb o’ylayman. Doimo haqli savol tug‘ilaveradi, nima uchun maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga jalb etish kerak?

Inklyuziv ta’lim va uning mohiyati

Jamiyatda farzandlar kelajak vorislari sifatida munosib fuqarolar bo‘lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Yangi O‘zbekiston bolalar huquqlarini himoya qilishga katta e’tibor bermoqda.

Bola huquqlari Konvensiyasi inklyuziv ta’lim tizimini huquq va qobiliyatlar asosida rivojlantirishni ta’riflaydi. Har bir bola o‘ziga xos qiziqish va bilishga ehtiyojga ega. Inklyuziv ta’lim — huquq va qobiliyatni himoya qiladigan, ijtimoiy adolat va tenglikni maqsad qilgan ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bu tizim muammoni bolada emas, balki jamiyatda deb hisoblaydi. Har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda reja tuzish va tarbiyachilarni psixologik muammolarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga tayyorlash zarur. Bolalarni maxsus ehtiyojli bo‘lib qolishiga jamiyatdagi muhit va xatolar sabab bo’lishi mumkin, demak, ularning ta’limi uchun jamiyatning o’zi mas’uldir.Demak, sog‘lom bolalar ta’lim tarbiya oladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlari,umumta’lim maktablarida maxsus ehtiyojli bolalar ham ta’lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligi e’tirof etiladi. Buning uchun esa maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ta’lim-tarbiya berishga, tarbiyachi va o‘qituvchilar esa ta’lim tarbiya berishga tayyor bo‘lishi, ta’lim to’g’risidagi qonun va davlat talablariga to‘liq javob bera olishlari kerak.

Ta’lim darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha zarur omillar ta’sir ko‘rsatadi. Birinchisi,markaziy omil — o‘quv joylashuvi, o‘qish imkoniyati va moliyalashtirish imkonidir. Ikkinchisi, ta’limda maktabgacha va maktab ta’limidagi jismoniy sharoit ham katta o‘rin tutadi. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda ularning huquq va qobiliyatlarini hurmat qilish, o‘zaro hamkorlik va do‘stona muhit yaratish muhimdir. Har bir bola o‘ziga xos ehtiyoj va qiziqishga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida bu ehtiyojlar hisobga olinishi zarur.

Djomtiyen (Tailand)da o‘tkazilgan konferensiya asosida “Ta’lim hamma uchun” shiorini qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga tatbiq etish maqsadida 1994-yilda YUNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati hamkorligida Salamanka (Ispaniya) umumjahon konferensiyasi o‘tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi — butun dunyodagi imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarda o‘qitish jarayonini takomillashtirish va ta’lim islohotlarini amalga oshirish zarurligini ta’kidlash edi.

NATIJA

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250 mingga yaqin turli ko‘rinishdagi maxsus ehtiyojli bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko‘zi ojizlar, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, poliomiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo‘ljallangan 86 ta maxsus ta’lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud.

O‘zbekistonda maxsus ta’lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko‘p qirrali ta’lim tizimini yaratish;

- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta’limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta’lim boshqaruvini markazlashtirish;

- yordamga muhtoj bolalarga yoshligidan tashhis qo‘yish va kasalliklarini aniqlash uchun sharoit yaratish;

- milliy ta’lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmalar sifatini yaxshilash;

- ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

- ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop etish;

- Maxsus ehtiyojli bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko‘zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalari, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlash;

- maxsus ta’lim sohasida kadrlar tayyorlash.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha 2024–2025-yillarda bir qator muhim huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar tizimni shunchaki joriy etishdan uni sifat jihatidan yaxshilash va har bir tumanga yoyishga qaratilgan.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi farmoni 2025-yilga mo‘ljallangan davlat dasturiga asosan: Har bir tuman va shahrida bosqichma-bosqich inklyuziv ta’lim talablariga javob beradigan kamida bittadan maktab va unga mos maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati tashkil etilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lmagan olis va chekka hududlarda maktabgacha ta’limning muqobil shakli bo‘lgan mobil guruhlar faoliyati kengaytirilmoqda.Prezidentning ushbu farmoni bilan inklyuziv guruhlarga oid bir qator mexanizmlar aniqlashtirildi:

-Yakka tartibdagi dasturlar: O‘ziga xos ehtiyojlari bor bolalar uchun individual ta’lim-tarbiya dasturlaridan foydalanish majburiyati yuklandi.

-Qulay muhit: MTTlar infratuzilmasini bolalarning jismoniy holatidan qat’iy nazar qulay qilib jihozlash vazifasi belgilandi.

- Pedagoglar uchun imtiyoz va ustamalar

Yangi qarorlarga muvofiq, inklyuziv ta’lim jarayoniga jalb qilingan kadrlar moddiy rag‘batlantirilmoqda:Inklyuziv sinf va guruhlarda dars beradigan yoki tarbiyalovchi o‘qituvchilarga ularning ish yuklamasi va bolalar soniga qarab tarif stavkasiga nisbatan qo‘shimcha ustamalar to‘lash tizimi takomillashtirildi.

-2025-yilga kelib umumta’lim tashkilotlarining qariyb 40 foizini inklyuziv ta’limga moslashtirish reja qilingan.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim — bu shunchaki ta’limiy islohot emas, balki jamiyatimizning insonparvarlik darajasini belgilovchi mezondir. Har bir bola, jismoniy imkoniyatidan qat’i nazar, teng e’tibor va mehrga loyiq. Maktabgacha yoshdagi inklyuziya orqali biz nafaqat alohida ehtiyojli bolalarni

jamiyatga moslashtiramiz, balki sog‘lom bolalarda ham bag‘rikenglik, hamdardlik va yuksak odamiylik fazilatlarini shakllantiramiz. Zero, dunyo barcha uchun teng va u rang-barangligi bilan go‘zaldir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni qaror toptirish orqali biz bolalarimiz qalbida to‘siqlarni emas, aksincha, mehr-oqibat rishtalarini quramiz. Bu jarayonda tarbiyachi va pedagoglarning mahorati shunchaki bilim berishda emas, balki har bir murg‘ak qalbning o‘ziga xosligini anglash va uni qadrlashda namoyon bo‘ladi. Agar biz bugun maktabgacha yoshdagi bolalarga bir-birining kamchiliklarini emas, balki o‘xshashliklarini ko‘rishni o‘rgata olsak, ertaga adolatli va hamjihat jamiyatni barpo etgan bo‘lamiz. Hozirgi kunda qator ekologik, ijtimoiy va boshqa sabablarga ko‘ra, shuningdek, homiladorlikdan keyingi patologik asoratlar natijasida bola rivojlanishi, ayniqsa uning ongi va aqliy muhit tahlili asosida faoliyatini nazorat qilish hamda boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o‘rganish muhimdir.

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi, tarbiyachi va mutaxassislar birgalikda ishlashlari, bolalarga zarur yordam ko‘rsatishlari lozim. Bu yordam maxsus ko‘mak, moslashtirilgan o‘quv materiallari, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiyani o‘z ichiga oladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta’lim jarayonida:

- o‘zaro hurmat va tenglik tamoyillari ustuvor bo‘lishi;

- mutaxassislar hamkorlikda ishlashi;

- maxsus yordam ko‘rsatilishi;

- ta’lim sharoitlari moslashtirilishi;

- bolalarning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki ta’minlanishi zarur.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish zarurati shundan kelib chiqadiki, ayrim bolalar ta’lim tizimidan chetda qolib ketmoqda. Bunga sabab — maxsus muassasalarga borish yo‘lining uzoqligi, moddiy mablag’ yetishmasligi yoki ota-onalarning farzandini maxsus muassasaga yuborishni istamasligi. Shu bois, inklyuziv ta’lim ota-onalarga ko‘mak berish, bolalarni jamiyatga erta va to’laqonli moslashtirish, teng huquqlilikni ta’minlash hamda ularning qobiliyatlarini namoyon etish imkonini yaratishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatsi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2020 y
2. O’zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatsi, “Maktabgacha va maktab ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2019 y
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” 802-son Qarori,2020 y
4. Mirziyoyev.Sh.M.“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-son Farmoni,2017 y
5. Mirziyoyev.Sh.M. “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risi”da, PF5712-son, 2019 y.
6. Mirziyoyev.Sh.M. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, PF-6108-son farmon, 2020 y.
7. Mirziyoyev.Sh.M. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, PF-60-son, 2022 y.

8. Mirziyoyev.Sh.M. 2020 yil “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, PQ–4860-son qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2020 y.
10. Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi Takomillashtirilgan 2-nashr, 2022 y.
11. Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi Takomillashtirilgan 3-nashr, 2025 y.
12. Tosheva N. T. "Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish"."KAMOLOT" nashriyoti. Buxoro.2022 y.
13. Sodiqova SH. "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi". "Tafakkur Bo'stoni" nashriyoti.2020.
14. Babayeva D."Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar"."Fan va texnologiya" nashriyoti. 2021y.